

**Texnik jihatdan tartibga solish agentligi vatizim tashkilotlarining  
2023-yil yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan  
MA'LUMOT**

**Standartlar va o'lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha  
davlat nazorati sohasida**

Joriy yil yanvar-iyun holatiga 61 ta xo'jalik yurituvchi subyektlarda (import, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish) davlat nazorati o'tkazildi. Natijada tekshirilgan 112 turdagi mahsulotdan 96 turdagi mahsulotlar texnik reglament talablariga nomuvofiqligi, 5 089 ta o'lchash vositalari va sinov uskunalaridan 4 608 tasi qiyoslanmagan holda foydalanilganligi aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 69 nafar mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-iyun holatiga 2 158 ta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazilgan. Jumladan, respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan 560 nafar tadbirkorlar uchun soha yuzasidan seminar o'tkazildi. Seminarda xalqaro talablarni joriy etish, eksport qilish istiqbollari, mahsulotlarni sifatini oshirish va sifatsiz mahsulotlar bilan kurash yo'nalishlarida qilingan ishlar va yangiliklar, yaratilgan qulaylik tushuntirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan holda 1 598 ta tadbirkorlik subyektlariga sohaga oid qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish bo'yicha ko'rsatma xatlar va tarqatma materiallar yuborildi.

**O'lchashlar yagonaligini ta'minlash sohasida**

Joriy yil yanvar-iyun holatiga 207 708 dona o'lchash vositalari (shulardan 1 982 dona o'lchash vositasi yaroqsiz deb topilgan) metrologik tekshiruvdan o'tkazilgan.

Ko'rsatilgan metrologik xizmatlardan 173 569 dona qiyoslash, 23 024 dona attestatsiya va 1 115 dona kalibrlash ishlarini tashkil etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning 92 124 ta murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalarini (hisoblagichlarni) qiyoslash ishlari amalga oshirilgan.

O'lchash vositalarining metrologik tekshiruvi natijalari va tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha 106 dona sertifikatlar rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, turini tasdiqlash maqsadida 28 turdagi o'lchash vositalari davlat sinovlaridan o'tkazilgan.

## **Muvofiqlikni baholash sohasida**

O'zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida yanvar-iyun oylarida 78 369 ta muvofiqlik sertifikati ro'yxatga olingan, shundan 22 551 tasi "O'zTest" davlat muassasasi (Agentlik tizimida) huzuridagi sertifikatlashtirish organlari tomonidan, 55 818 tasi muvofiqlik sertifikati, boshqa akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan. Shundan respublikada ishlab chiqarilgan mahsulotlarga 9043 ta, import qilinadigan mahsulotlarga 69 326 ta muvofiqlik sertifikatlari berilgan.

## **Menejment tizimlarini joriy etish sohasida**

Joriy yil yanvar-iyun holatiga 610 ta korxonada sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan: sifat menejment tizimlari (ISO 9001) bo'yicha 261 ta; ekologik menejment tizimlari bo'yicha (ISO 14001) 158 ta; oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari (ISO 22000) bo'yicha 24 ta; energetik menejment tizimlari (ISO 50001) 3 ta; kasb-hunar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik menejment (ISO 45001) bo'yicha 164 ta menejment tizimlari.

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish 19 ta akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 89 ta korxonada "OEKO-TEX" xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

## **Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish**

Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylari mobaynida korxonalarga 852 ta, shundan standartlashtirish – 220 ta, metrologiya – 94 ta, sertifikatlashtirish – 186 ta, sifat menejment tizimlari masalalari – 213 ta, qadoqlash va yorliqlash – 57 ta va boshqa masalalarda 82 ta konsultativ xizmatlar ko'rsatildi 30 marotaba seminar-treninglar, mahalliy gazetalarda 49 ta maqolalar chop etildi va 22 marotaba radio va TVda chiqishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda, hududlarda joylashgan 155 ta tumandagi 693ta korxonalarining 73 turdagi mahsulotlarini dunyoning 40 ta mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.